# SO’X TUMANI AHOLISI DIQQATIGA!

**So’x tumani aholisi diqqatiga!**

O’zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligining 2023 iil 11 may kunidagi 1/5/3-684-sonli talabnomasi hamda O’zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazining 2023 ynl 11 may kunndagi 380-07/25-sonli ogohlantiruv ma'lumotlariga ko’ra, joriy yilning 12-13 va 16-17 may kunlari kutilayotgan yomg’irlar yog’ishi sababli, Respublikaning tog’li va tog’oldi hududlarida, jumladan:

Farg’ona viloyatining So’x, Shohimardon, Farg’ona va Beshariq tumanlarida sel-suv toshqini hodisalari yuzaga kelishi mumkin.

Hurmatli fuqarolar! Mazkur ma'lumotnomada keltirilgan ma'lumotlarni inobatga olgan holda, yuqorida ko’rsatilgan kunlarda ogoh bo’lish va hushyorlikni kuchaytirish, ayniqsa, yosh bolalarni nazoratsiz qoldirmasliklaringizni so’rab qolamiz.

**So’x tumani favqulodda vaziyatlar bo’limi**

**So’x tumani hokimligi Axborot xizmati**

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook | Telegram | Telegram murojaat | Youtube | Instagram
2023-05-13 11:09:34